


YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–martida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 11 750,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 7,3 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 118,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 9,1 % ga yetdi.



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


| | | <i>Mlrd. so'm</i> | | <i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i> |
|--|----------------|-------------------|------------------|--|
| | | <i>2020- yil</i> | <i>2021- yil</i> | |
| | I. YaHM | 9 265,5 | 11 750,4 | 107,3 |

shu jumladan:

| | | | | |
|--|---|----------------|-----------------|--------------|
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 9 112,5 | 11 519,4 | 107,3 |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 153,0 | 231,0 | 109,1 |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 9 112,5 | 11 519,4 | 107,3 |
| | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 796,9 | 926,0 | 102,8 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 7 115,1 | 9 223,7 | 108,6 |
| | sanoat | 6 751,6 | 8 835,5 | 109,3 |
| | qurilish | 363,5 | 398,2 | 94,2 |

| | | Mld. so'm | | <i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i> |
|------------------|--|----------------|----------------|--|
| | | 2020- yil | 2021- yil | |
| Xizmatlar | | 1 200,5 | 1 359,7 | 102,9 |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 298,1 | 337,1 | 100,8 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 176,9 | 216,7 | 110,5 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 725,5 | 805,9 | 101,9 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 11 573,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga yuqoridir.



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ulushi 8,0 % ni, sanoat tarmog'i 76,7 % ni, qurilish 3,5 % ni va xizmatlar sohasi 11,8 % ni tashkil qildi.




Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | | 2020-yil | 2021-yil |
|--|---|-----------------|-----------------|
| | I. YaHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| | <i>shu jumladan:</i> | | |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 98,3 | 98,0 |
| | Mahsulotlarga sof soliqlar | 1,7 | 2,0 |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
| | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 8,7 | 8,0 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 78,1 | 80,2 |
| | sanoat | 74,1 | 76,7 |
| | qurilish | 4,0 | 3,5 |
| | Xizmatlar | 13,2 | 11,8 |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 3,3 | 2,9 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1,9 | 1,9 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 8,0 | 7,0 |

2020- yil



2021- yil






**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM
tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,8 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 8,0 %), sanoatda – 109,3 % (76,7 %), xizmatlar sohasida – 102,9 % ni (11,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100,8 % (2,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 110,5 % (1,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,9 % dan (7,0 %) iborat bo'ldi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,2 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 6,8 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 6,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 0,3 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,9 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yil yanvar-martida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.



2021-yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020-yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 118,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 119,7 % va qurulishda – 116,3 % qayd etildi.



**Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan %da)**



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 19,0 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida - 21,2 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.